

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-iyun oylarida Sirdaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinnarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 14 997,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2024- yilning yanvar-iyun oylari bilan taqqoslaganda 6,3 % ga ko'paydi.

YAHM deflyator indeksi 2024- yilning yanvar-iyun oylari narxlariga nisbatan 111,0 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Sirdaryo viloyatining qo'shgan hissasi 1,9 % tashkil qildi.

## 2025- yilning yanvar-iyun oylarida Sirdaryo viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



106,3 %

14 997,1 mlrd. so'm



111,0 %

1,9 %

- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi

## 2025- yilning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’atlari

	Mird. so‘m		<i>O’sish sur’atlari, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
	2024- yil	2025- yil	
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>12 708,8</b>	<b>14 997,1</b>	<b>106,3</b>
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	12 491,7	14 556,1	106,2
mahsulotlarga sof soliqlar	217,1	441,0	108,2
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati</b>	<b>12 491,7</b>	<b>14 556,1</b>	<b>106,2</b>
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	3 206,8	3 528,3	103,8
<b>sanoat (qurilishni qo‘shtigan holda)</b>	<b>4 924,1</b>	<b>5 963,1</b>	<b>107,6</b>
sanoat	4 032,4	4 890,2	105,6
qurilish	891,7	1 072,9	116,5
<b>xizmatlar</b>	<b>4 360,8</b>	<b>5 064,7</b>	<b>106,5</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	1 219,0	1 456,1	110,8
tashish va saqlash, axborot va aloqa	449,9	553,9	112,3
boshqa xizmat tarmoqlari	2 691,9	3 054,7	103,6

Quyida keltirilgan infografikadan ko‘rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 16 045,7 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 4,4 % ga ko‘pdir.

## 2025- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so‘mda)



## 2025- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o‘sish sur’atlari (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



## Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2024- yil	2025- yil
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	98,3	97,1
mahsulotlarga sof soliqlar	1,7	2,9
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>25,7</b>	<b>24,2</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>39,4</b>	<b>41,0</b>
sanoat	32,3	33,6
qurilish	7,1	7,4
<b>xizmatlar</b>	<b>34,9</b>	<b>34,8</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	9,8	10,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	3,6	3,8
boshqa xizmat tarmoqlari	21,5	21,0



2025- yilning yanvar-iyun oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiyligi YAHMning 97,1 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,9 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 24,2 % ni, sanoat tarmog'i 33,6 % ni, qurilish 7,4 % ni va xizmatlar sohasi 34,8 % ni tashkil qildi.

## Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo'yicha YAHM tarkibi (*jamiga nisbatan % da*)

**2024- yil**



**25,7 %**

**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi**

**1,7 %**

**32,3 %**

**Sanoat**

**7,1 %**

**Qurilish**

**34,9 %**

**Xizmatlar**

**2025- yil**

**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi**

**24,2 %**

**2,9 %**

**Sanoat**

**33,6 %**

**Qurilish**

**7,4 %**

**Xizmatlar**

**34,8 %**



**Yalpi qo'shilgan qiymat**

**Mahsulotlarga sof soliqlar**

# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,0 f.p. (2024- yilning yanvar-iyunida – 1,0 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,8 f.p. (2024- yilning yanvar-iyunida – 1,9 f.p.), qurilish tarmog'i – 1,2 f.p. (2024- yilning yanvar-iyunida – 0,2 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 2,2 f.p. (2024- yil ning yanvar-iyunida – 2,0 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,1 f.p. hissa qo'shdi

## 2025- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)

### YAHM



6,3 %

### Sanoat




1,8 %

### Xizmatlar



2,2 %

### Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



1,0 %

### Qurilish



1,2 %

### Mahsulotlarga sof soliqlar




0,1 %

2025- yilning yanvar-iyun oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiliy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,8 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 24,2 %), sanoatda – 105,6 % (33,6 %), qurilishda – 116,5 % (7,4 %), xizmatlar sohasida – 106,5 % ni (34,8 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 110,8 % (10,0 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 112,3 % (3,8 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,6 % dan (21,0 %) iborat bo'ldi.

**Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**

2024- y.

2025- y.




2025- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM deflyatori indeksi 2024- yilning yanvar-iyun oylaridagi narxlarga nisbatan 111,0 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 114,8 % va xizmatlarda – 109,1 % qayd etildi.

## Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2024- y.

2025- y.



2025- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik 9 738,7 mlrd. soʻmni tashkil etdi (2024- yilning yanvar-iyun oylarida – 7 798,2 mlrd. soʻm). YAHMdagi ulushi 66,9 % ni (2024- yilning yanvar-iyun oylarida – 62,4%) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʼsishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bogʼliq.

## Yanvar-iyun oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)



Hajmi, mlrd.soʻm

Ulushi, % da

2024- yil

7 798,2

62,4 %

2025- yil

9 738,7

66,9 %

